

ILOVA KONSTRUKSIYA STRUKTUR-GRAMMATIK TURLARNING  
NUTQDA FUNKSIONAL QO’LLANILISHI

Hamrayeva M

*SamDCHTI magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilova konstruksiyalar struktur-grammatik turlarning turli tumanligiga va ayrim leksik-grammatik ifoda vositalarining yo‘qligiga qaramasdan nutqda funksional qo’llanishi tahlil qilingan hamda tilshunos olimlar tomonidan ilova konstruksiyalarning strukturaviy va grammatik xususiyatlariga doir ayrim mulohazalar keltirilgan va ushbu mulohazalarga muallifning nuqtai nazari ifodalangan.

**Kalit so‘zlar:** sintaktik aloqa, ilova hodisasi, ilovali element, ilova konstruksiya, struktur o‘ziga xoslik, bog’lanish, ergashish, qo’shimcha xabar, ekspressivlik, lingvistik birlik.

Hozirgi zamon tilshunosligi sintaktik tizimi uchun V.M.Lomonosovning “Rus tili grammatikasi”dan boshlab tadqiq qilingan sintaktik aloqa tushunchasi eng muhim va fundamental hisoblanadi. Shu bilan birgalikda tilda hanuzgacha sintaktik aloqa turlari to‘liq, mantiqan va grammatik jihatdan to‘la-to‘kis bayon etilmagan.

Bundan tashqari, hatto aloqaning an’anaviy ajralib turuvchi turlari ierarxiyasi sintaktik tizimning turli darajalarida turlicha amalga oshirilgan. Masalan, A.M.Lomovning ta’kidlashicha qo’shma gaplarda “eng avvalo bog’lovchili va bog’lovchisiz bog’lanish farq qiladi, so‘ngra esa ergashgan va bog’langan qo’shma gapga bo‘linadi. Aksincha, ham bog’lovchili, ham bog’lovchisiz bog’lanish amalga oshadigan sodda gap doirasida tobe va teng bog’lanishning qarama-qarshi qo‘yilishi iyerarxik eng yuksak cho‘qqiga chiqqanligi e’tirof etiladi, ularning har biri o‘z navbatida bir qancha asoslar bilan farqlanadi” [3; 311-b.].

Uzoq vaqt ilova konstruksiyalarga faqat so‘zlashuv nutqining elementlari sifatida qarashdi, garchi 1950-yilda S.Ye.Kryuchkov “ilovali bog’lanish og‘zaki nutqdan yozma adabiy tilning turli janrlariga har tomonlama (singib) kirib bormoqda”, deb ta’kidlagan bo‘lsa ham [2; 400-b.].

Hozirgi nemis tili lingvistik adabiyotlarida ilova konstruksiyalarning holati hali ham yetarlicha o‘rganilmagan, bu borada aniq bir termin qo‘llanilmagan. Nemis tilshunoslarning asarlarida ilova konstruksiyalar turli atamalar bilan ifodalanadi.

Qo’shimcha xabar munosabati sifatida ilova hodisasi lingvistik [grammatik] birlikni ifodalaydi, shuning uchun uning sintaktik “maqomi” bir xil tartibdagi boshqa lingvistik hodisalar bilan lisoniy hodisa sifatidagi aloqalari va munosabatlari asosida aniqlanishi mumkin. Demak, ilova ma’nosida qayd etilgan guruh a’zolari ushbu guruh doirasidagi bir-biriga nisbatan ham, boshqa sintaktik tuzilmalarga nisbatan ham qay darajada formal bo‘linuvchanlikka ega bo‘ladi, degan savol tug‘iladi. Shuni aytib o‘tish kerakki, ilova ma’nosini ifodalashning formal xilma-xilligi, ilova hodisasining formal sintaktik mazmunining noaniqligi haqidagi fikrga olib keladi. Bu qo’shimchani o‘rganish tarixida

ba’zi tilshunoslar tomonidan tildagi grammatik “maqomi” to‘liq tushunarsiz bo‘lgan va an’anaviy tushunchalar, masalan teng bog‘lanish va tobe bog‘lanish yordamida tushuntirib bo‘lmaydigan juda o‘ziga xos lingvistik hodisa sifatida talqin qilinganida namoyon bo‘ladi [4; 152 – 157-b.].

Ilova hodisasi – sintaktik aloqaning alohida turi sifatida – bog‘lanishdan ham, ergashishdan ham farq qiladi. Bog‘lanishda gap elementlari birliklarning sintaktik munosabatida teng huquqli sifatida namoyon bo‘ladi, ergashishda esa tobe sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo V.V. Vinogradovning yozishicha – ular u holatda ham, boshqa holatda ham “bitta sintaktik sathga joylashadi” [1; 260-b.].

Ilova konstruksiyalarning o‘ziga xos xususiyati – asosiy ifoda va ilovali elementlar o‘rtasidagi intonatsion va sintaktik uzilishdir. Shuning uchun ular mantiqiy bo‘linadi.

Ilova konstruksiyalar struktur-grammatik turlarning turli-tumanligiga va ayrim leksik-grammatik ifoda vositalarining yo‘qligiga qaramasdan nutqda funksional qo‘llanish birligi (ular asosiy fikrdan so‘ng yuzaga keladigan fikrni ifodalaydi), uzun pauzadan so‘ng alohida intonatsiya bilan vujudga keladigan sintaktik aloqaning uzuq-uzuq xarakteri bilan birikadi.

Yozuvda pauzaning uzunlik darajasi turli tinish belgilari bilan ifodalanadi.

Bog‘lovchili ilova hodisasida odatda vergul qo‘llanadi. Masalan:

Bevor Sie Menschen sind, die Macht in der Stadt haben. Und nicht klein (Walser M. Ein fliehendes Pferd. Suhrkamp. 123 S.)

Bog‘lovchili ilova hodisasida agar asosiy fikrga biroz tugallanmaganlik, va bundan tashqari ancha uzun pauza berish kerak bo‘lgan hollarda ko‘p nuqtani qo‘llash ham mumkin. Masalan:

Es ist beängstigend, es zuzugeben, aber ich möchte, dass diese Person weiß, dass es für mich wie ein Lied ist ... Und es muss das letzte sein (Frisch M. Homo faber. 103 S.).

Ammo ko‘pincha nuqta qo‘yiladi. Masalan:

Städte, die mit Bahnhöfen beginnen... Jede Stadt hat ein Alter und eine Stimme. Es gibt Kleider. Und ein besonderer Geruch. Und ein Gesicht. Und nicht sofort verständlicher Stolz (Regener S. Herr Lehman. 187 S.);

Bog‘lovchisiz ilova hodisasida ko‘p nuqta qo‘yiladi. Yozma nutqda aslida u faqat ancha uzun pauzani ifodalab, ilova hodisasining rasmiy ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan:

Es ist notwendig zu handeln, es ist notwendig zu handeln ... Weinen Sie später. Nachts. Eines Tages (Remarque E.M. Die Nacht von Lissabon. 85 S.).

Sintaktik sathda ilova hodisasini gapning grammatik strukturası (tuzilishi) va semantik mazmunini gapdan tashqarida sintaktik kuchaytirish uslublaridan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Masalan:

Sie blieb bei uns, wenn auch nicht lange. Weniger als eine Woche (Walser M. Der Augenblick der Liebe. 54 S.)



Til materialini tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, ilovali komponent sifatida turli sintaktik funksiyalarni bajargan holda gapning ikkinchi darajali bo‘laklari namoyon bo‘lishi mumkin. Eng avvalo ularga aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol talluqlidir.

Demak, ilova vazifasidagi aniqlovchi postpredikativ xarakterga ega bo‘ladi. Ular ilova konstruksiyalarga sintaktik istiqbolning o‘ziga xos lahzasini olib kiradi, butun gapga emotsiyonallik va ekspressiyani beradi. Aniqlanadigan ot bilan bir qatorda odatiy o‘rnini egallamasdan birikuvchi ilovalar nuqtadan so‘ng xabar berishi mumkin bo‘lgan qo‘s Shimcha, okkazional belgi va sifatlarni ifodalagan holda antetsedent bilan distant pozitsiyada struktur-semantik aloqani saqlab qoladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Виноградов В.В. Основные вопросы синтаксиса предложения // Избр. тр. Исследования по русской грамматике. –М.: Наука, 1975. –С. 254 - 294.
2. Крючков С.Е. О присоединительных связах в современном русском языке // Вопросы синтаксиса современного русского языка / под ред. В.В.Виноградова. –М.: Учпедгиз, 1950. –397-411.
3. Ломов А.М. Словар-справочник по синтаксису современного русского языка. –М.:ACT: Восток – Запад, 2007. –416 с.
4. Mamasoliev I.U. Structural-semantic complication of speech in german with the participation of connecting structures // Вестник таджикского национального университета. Серия филологических наук, №4. ISSN 2413-516X. –Душанбе, 2022. –С. 152-157.

#### **BADIY ADABIYOTLAR:**

1. Frisch M. Homo faber. Suhrkamp Verlag. 1997. –203 S.
2. Regener S. Herr Lehman. Eichborn Verlag AG, 2003. –285 S.
3. Remarque E.M. Die Nacht von Lissabon. Aufbau-Verlag Berlin und Weimar, 1976. –304 S.
4. Walser M. Ein fliehendes Pferd. Suhrkamp Verlag Frankfurt am Main, 2002. –164 S.
5. Walser M. Der Augenblick der Liebe. Rowohlt Verlag GmbH, Reinbeck bei Hamburg, 2004. –254 S.